

**O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETINI O‘RTA MUDDATLI
PROGNOZLASHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY
JIHATLARI**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Iqtisodiyot fakulteti

Moliya kafedrasi “Moliya” mutaxassisligi magistranti

Narzullayev Umid Zuvaydullo o‘g‘li

umidnarzullayev93@gmail.com

Tel.: +998900016484

Annotatsiya. Mazkur ilmiy tadqiqot O‘zbekiston Respublikasida davlat budjetini o‘rta muddatli prognozlash tizimining nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qiladi. Tadqiqot doirasida 2026–2028-yillar uchun davlat budjeti daromadlari va xarajatlarining o‘rish dinamikasi, konsolidatsiyalashgan budjet defitsiti, shuningdek, fiskal ko‘rsatkichlarni o‘rta muddatli rejalashtirish jarayonida samarali boshqarish masalalari ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga, budjet prognozlarining aniqligini oshirish va fiskal barqarorlikni mustahkamlash bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: davlat budjeti, o‘rta muddatli prognozlash, fiskal rejalashtirish, konsolidatsiyalashgan budjet, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, budjet defitsiti.

Davlat budjetini samarali rejalashtirish va prognozlash mexanizmlari moliya boshqaruvida markaziy rol o‘ynaydi. Qisqa muddatli budjet rejalaridan farqli ravishda, o‘rta muddatli prognozlash (odatda 3–5 yillik davr) fiskal siyosatni strategik maqsadlar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu tizim moliyaviy intizomni mustahkamlash, budjet defitsitini nazorat qilish va davlat qarzining barqarorligini ta‘minlash imkonini beradi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi fiskal siyosatni modernizatsiya qilish strategiyasini

amalga oshirib, oʻrta muddatli prognozlash tizimini amaliyotga joriy etdi, bu esa iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun zarur hisoblanadi.

Oʻrta muddatli budjet prognozlashning nazariy asoslari. Ilmiy adabiyotlarda oʻrta muddatli budjet prognozlash fiskal rejalashtirishning asosiy institutsional mexanizmi sifatida qoraladi (Musgrave & Musgrave, 1989; Allen & Tommasi, 2001). Bu yondashuv davlat daromadlari va xarajatlarini uzoq muddatda proyeksiya qilish orqali resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi. Natijada, fiskal siyosat barqarorligi oshadi, iqtisodiy oʻsish ragʻbatlantiriladi va investitsion muhit yaxshilanadi.

Makroiqtisodiy omillarning prognozlashdagi ahamiyati. Oʻrta muddatli budjet prognozlashtirish jarayoni makroiqtisodiy koʻrsatkichlar bilan chambarchas bogʻliq. YaIM oʻsish surʼati, inflyatsiya darajasi, bandlik koʻrsatkichlari va soliq bazasining kengayishi budjet daromadlari prognoziga bevosita taʼsir koʻrsatadi.

Masalan,

2025-yilda davlat budjeti daromadlari 26% ga oshgan, bunda QQS tushumlari 25,4%, foyda soligʻi 30% ga oʻsishi muhim omil boʻlgan.

1-jadval: Oʻzbekiston Respublikasida makroiqtisodiy koʻrsatkichlar va budjet daromadlariga taʼsiri (2025–2026)

Koʻrsatkich	2025-yil	2026-yil (prognoz)	2027-yil (prognoz)	2028-yil (prognoz)	Budjet daromadlariga taʼsir
YaIM oʻsish surʼati (%)	6,5	6,6	6,8	6,9	Yuqori iqtisodiy oʻsish soliq tushumlarini oshiradi va daromadlarni barqarorlashtiradi

Inflyatsiya (%)	7,8	7	5-6	5	Narxlar o‘sishi budget xarajatlarini rejalashtirishni qiyinlashtiradi
Bandlik darajasi (%)	95,8	96	96,2	96,5	Daromad solig‘i va ijtimoiy tushumlarni belgilaydi
Soliq tushumlari (trln so‘m)	220,3	260,1	304,0	348,5	Budjetning asosiy daromad manbai
Nosoliq tushumlar (trln so‘m)	67,5	78	92	108	Iqtisodiy faoliyatning boshqa manbalarini qamrab oladi
Soliq bazasi o‘sishi (%)	6,8	7,2	7,6	8	Soliq tushumlarining barqarorligini ta’minlaydi

(Manba: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy ma’lumotlari asosida muallif tomidan ishlab chiqilgan).

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, makroiqtisodiy o‘shish va soliq bazasining kengayishi daromadlarni oshirishga yordam beradi, inflyatsiya esa xarajatlarni rejalashtirishni murakkablashtiradi. Shu bilan birga, bandlik darajasi ijtimoiy tushumlar va ish haqi solig‘i hajmini belgilaydi.

O‘zbekistonda o‘rta muddatli budget prognozlashning amaliyoti. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi o‘rta muddatli fiskal rejalashtirish tizimini bosqichma-bosqich joriy qilmoqda. Budget daromadlari prognozida soliq va nosoliq tushumlarining manbalari diversifikatsiya qilinib, iqtisodiy rivojlanish dasturlari bilan uyg‘unlashtirilmoqda. Xarajatlar esa ijtimoiy soha, infratuzilma

va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

2026-yilda konsolidatsiyalashgan davlat budjetining daromadlari 509,8 trillion so'mga yetishi ko'zda tutilgan, 2025-yilga nisbatan 8% o'sishni ifodalaydi. Xarajatlar 568,6 trillion so'mni tashkil etadi;

2025-yilda konsolidatsiyalashgan budjet defitsiti 53 trillion so'mni tashkil etdi, bu YaIMning taxminan 3,5%iga teng;

Soliq ma'murchiligini yaxshilash, daromadlar bazasini yanada kengaytirish hamda ayrim soliq-bojxona imtiyoz va preferensiyalarini bekor qilish bo'yicha choralar ko'rilishi natijasida 2026–2028-yillarda konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari YIMning 26 % atrofida shakllanishi prognoz qilinmoqda;

2025-yilda budjetning 53% dan ortig'i ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohalariga ajratilgan.

Mavjud muammolar va takomillashtirish yo'nalishlari. O'rta muddatli prognozlash jarayonida quyidagi muammolar mavjud: global iqtisodiy beqarorlik, statistika bazasining rivojlanmaganligi va tashqi omillarning o'zgaruvchanligi.

Shu boisdan quyidagi takliflar ichlab chiqildi:

1. Prognozlash metodologiyasini zamonaviy statistik modellar bilan boyitish (masalan, vaqt qatorlari ARIMA/SARIMA), bu orqali iqtisodiy o'zgarishlarni oldindan aniqlash imkoniyati oshadi.
2. Raqamli fiskal monitoring tizimlarini joriy etish, bu budjet jarayonini real vaqt rejimida kuzatishga yordam beradi.
3. Xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish, shu jumladan o'rta muddatli fiskal rejalashtirish standartlarini qo'llash.

Xulosa

Davlat budjetini o'rta muddatli prognozlash O'zbekiston Respublikasining fiskal siyosatini barqaror va samarali boshqarishda markaziy

rol o'ynaydi. So'nggi yillar statistik ko'rsatkichlari budjet prognozlari orqali resurslarni strategik yo'naltirish va ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish imkonini yaratganligini ko'rsatadi. Kelgusida prognozlash metodologiyalarini takomillashtirish orqali hukumat uchun yanada aniq va realistik fiskal qarorlar qabul qilish imkoniyati oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi. Tashkent, 2013.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlari. <https://lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2026–2028). *Budjetnoma*. <https://www.imv.uz>
4. Allen, R., & Tommasi, D. (2001). *Managing Public Expenditure*. Washington, DC: World Bank.
5. Fayzullayev, D. (2024). O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarini o'rta muddatli prognozlash. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 12(3), 45–58.
6. IMF. (n.d.). *Medium-Term Fiscal Frameworks*. International Monetary Fund. <https://www.imf.org>
7. Musgrave, R. A., & Musgrave, P. B. (1989). *Public Finance in Theory and Practice* (5th ed.). New York: McGraw-Hill.